

**O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi
tarkibiy va hududiy bo'linmalarida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi
mas'ul xodimlari va koordinatorlari to'g'risidagi namunaviy**

NIZOM

1. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tizimidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi mas'ul xodimlari va koordinatorlari to'g'risidagi ushbu namunaviy Nizom (keyingi o'rinlarda Nizom deb yuritiladi) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mas'ul xodim va koordinatorning (keyingi o'rinlarda mas'ul xodim deb yuritiladi) vazirlik hududiy boshqarmalaridagi vazifalari va vakolatlarini belgilaydi.

2. Mas'ul xodimlar vazirlik tizimida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradilar, shuningdek, vazirlik markaziy apparatida (keyingi o'rinlarda Bo'lim deb yuritiladi) korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga ko'maklashadi, o'z navbatida vazirlik, uning hududiy boshqarmalari va tasarrufidagi muassasalarida (keyingi o'rinlarda tarkibiy va hududiy bo'linma deb yuritiladi) korrupsiyaga qarshi kurash tizimining samaradorligini ta'minlash uchun mas'ul hisoblanadi.

3. Mas'ul xodim sifatida ushbu Nizom va vazirlik tizimining boshqa ichki hujjatlari bilan belgilangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha majburiyatlarni bajaradigan, to'liq stavkada ishlaydigan, yoki ushbu vazifalarni korrupsion xatarning yuqori yoki o'rta darajasi bilan tavsiflanmaydigan boshqa funktsiya doirasida vazifalarni o'rindosh sifatida bajaradigan xodim tayinlanishi mumkin.

4. Vazirlikning tarkibiy va hududiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mas'ul bo'lgan xodimlar yoki bo'linmalar mavjud bo'lgan holda koordinatorlar tayinlanmaydi.

5. Yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish doirasida mas'ul xodim tegishli tarkibiy va hududiy bo'linma rahbari va Boshqarma boshlig'ining buyruqlari va topshiriqlarini (ushbu Nizomda va vazirlik tizimidagi boshqa ichki hujjatlarda mustahkamlangan korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha) bajaradi.

6. Mas'ul xodim tegishli vazirlikning tarkibiy va hududiy bo'linma rahbariga va Boshqarmaga hisobot beradi. Vazirlikning tarkibiy va hududiy bo'linmalarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha yuklatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq masalalar yuzasidan olingan topshiriqlar va buyruqlarda ziddiyatlar bo'lgan taqdirda, Boshqarma buyruqlari va topshiriqlari vazirlik tizimi rahbarining buyruqlari ustidan ustuvor ahamiyat kasb etadi.

7. Vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratish va takomillashtirish, vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiya harakatlarining oldini olish;

vazirlik tarkibiy va hududiy bo‘linmalari xodimlarini xabardor qilish va maslahat berish, shuningdek, ushbu masalalar bo‘yicha fuqarolar, kontragentlar va jamiyat bilan muloqot qilish;

vazirlik tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini nazorat qilish va monitoring qilish;

boshqarma bilan hamkorlik qilish;

korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlari va korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi bilan hamkorlik qilish.

8. Vazirlik tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodim o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratish va takomillashtirish, vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiya harakatlarining oldini olish sohasida:

vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratilgan ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va muvofiqlashtiradi;

vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi, yo‘l xaritasini ishlab chiqadi;

vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiya xavflarini baholashni muvofiqlashtiradi, korrupsiya xavfi xaritasini tayyorlaydi va bevosita rahbarga, shuningdek Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tizimidagi korrupsiya xavflarini aniqlash va baholash Uslubiyotiga muvofiq boshqarmaga yuboradi;

vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari ichki aktlarida aniqlangan korrupsiogen omillarning oldini olish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi.

2) vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish, shuningdek, ushbu masalalar bo‘yicha fuqarolar, kontragentlar va jamiyat bilan aloqa qilish masalalari bo‘yicha xabardor qilish va maslahat berish sohasida:

vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari xodimlari o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy savodxonlikni oshirish masalalari bo‘yicha treninglar, seminarlar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha boshqarmaga yordam beradi;

vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya harakatlari va tavakkalchilik masalalari bo‘yicha hisobotlarini ko‘rib chiqishda ishtirok etadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari xodimlariga maslahat va tushuntirishlar beradi;

korrupsiyaga qarshi talablar va normalarni o‘qitish bo‘yicha vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari xodimlarini o‘qitish rejalarini tayyorlashda ishtirok etadi;

vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari boshqaruv xodimlari uchun, shu jumladan korrupsion xavfning yuqori darajasi bilan bog‘liq lavozimlarda korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha o‘quv materiallarini ishlab chiqishda, ishtirok etadi;

vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari xodimlari, kontragentlar va fuqarolar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi xatti-harakatlarni faol ilgari surishda ishtirok etadi;

vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarining rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlari sahifalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha joylashtirilgan axborotning yangilanishini ta‘minlaydi;

korrupsion harakatlar to‘g‘risida xabar berish uchun mo‘ljallangan vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari maxsus aloqa kanallarining ish natijalarini tahlil qiladi va korrupsion xavflar to‘g‘risida xabardorlikni oshirish maqsadida rahbariyat va xodimlarga tahliliy materiallarni taqdim etadi.

3) vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini nazorat qilish va monitoring qilish sohasida:

o‘quv rejasiga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha treninglarni boshqarish;

korrupsiyaga qarshi kurash siyosati va tartib-taomillarini, shuningdek korrupsiya xavfi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan hollarda vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari xodimlarining axloqiy me‘yorlarga rioya etishlari ustidan nazorat tadbirlarini monitoring qilish va amalga oshirish jarayonida boshqarmani qo‘llab-quvvatlaydi;

bilan vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiya harakatlari bo‘yicha xizmat tekshiruvlarini o‘tkazishda ishtirok etadi;

vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida hisobot tayyorlash bo‘yicha boshqarmaga ko‘maklashadi, shuningdek bevosita rahbari va boshqarma boshlig‘iga hisobot yuboradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari va ichki hujjatlarda aniqlangan qoidabuzarliklar bartaraf etilishini nazorat qiladi;

o‘tkazilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari asosida korrupsiyaga qarshi tizimni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqadi va tegishli boshqarmaga yordam beradi hamda takliflar kiritadi.

vazirlik tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida korrupsiya harakatlari bo‘yicha xizmat tekshiruvlarini o‘tkazishda ishtirok etadi;

xizmat tekshiruvlari reestrda korrupsiya harakatlari bo‘yicha o‘tkazilgan xizmat tekshiruvlari bo‘yicha axborotning to‘g‘ri va to‘liq aks ettirilishini ta‘minlaydi.

4) *Boshqarma bilan hamkorlik qilish borasida:*

vazirlik tizimidagi ushbu Nizomda va boshqa ichki hujjatlarda belgilangan korrupsiyaga qarshi kurashishning barcha masalalari bo‘yicha tuzilmaga ko‘maklashadi;

vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida talab bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga doir zarur axborot va hujjatlarni taqdim etadi;

boshqarma oldiga qo‘yilgan korrupsiyaga qarshi choralar va vazifalarni amalga oshiradi.

5) *Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa organlar bilan hamkorlik qilish borasida:*

korrupsiya huquqbuzarliklarini bartaraf etish yoki tergov qilish tadbirlarini o‘tkazishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatli vakillari va O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligiga ko‘maklashadi.

9. Vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalarida unga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas‘ul xodim quyidagi huquqlarga ega:

vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari xodimlaridan o‘z vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha materiallar, xulosalar, birlamchi va boshqa tasdiqlovchi hujjatlar, statistik va boshqa ma‘lumotlarni so‘rash, talab qilish va olish;

xizmat vazifalarini bajarish doirasida vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari xodimlarining zarur yordamini so‘rash va olish;

vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linma rahbariga korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;

xizmat tekshiruvida ishtirok etish, hujjatlarni talab qilish, vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari xodimlaridan yozma tushuntirishlar olish, shuningdek bino, qurilma va uskunalarni tekshirish, tegishli hujjatlarning nusxalarini yaratish, o‘tkaziladigan tekshiruvlar doirasida vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari faoliyati faktlarini foto- va video-qayd etish;

vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari odob-axloq Komissiyasi majlislarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etish, belgilangan reglament va vazirlik tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi talablariga rioya etilishi va etika bo‘yicha Komissiya yig‘ilishining natijalari to‘g‘risida fikr bildirgan holda etika bo‘yicha Komissiya majlislarida ishtirok etish.

Vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas‘ul xodimi vazir, boshqarma, rahbariyat buyruqlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi mumkin.

10. Vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari mas‘ul xodimi o‘ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda ochiqlik, vijdonlilik, umumiy natijaga yo‘naltirilganlik tamoyillari, javoblarning o‘z vaqtida va to‘liqligi va taqdim etilgan tavsiyalar asosida o‘zaro hamkorlik qiladi.

11. O‘ziga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarning vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari mas‘ul xodimi tomonidan bajarilishi samaradorligini baholash har yili korrupsiyaga qarshi dastur / yo‘l xaritasining bajarilishi hamda boshqarma va bevosita rahbari tomonidan belgilangan samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlariga (SAK) erishish yakunlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

12. Vazirlikning tarkibiy va hududiy bo‘linmalari mas‘ul xodimlari o‘z xizmat vazifalarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik hamda / yoki vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini buzganlik, vazirlik xodimlarining odob-axloq qoidalari, vazirning buyruqlari, shuningdek, ularga yuklatilgan vazifalarni bajarishdan bo‘yin tovlaganlik, vazirlik tizimi va / yoki vazirlikning korrupsiyaga qarshi tizimi, uning hududiy boshqarmalari va tasarrufidagi muassasalari faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan noqonuniy xatti-harakatlari yoki harakatsizligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda intizomiy va / yoki boshqa javobgarlikka tortiladilar.